



## Swedbank – jamg'arma bankiga xush kelibsiz

Swedbank yoki jamg'arma bankida mijoz sifatida ro'yxatdan o'tish uchun siz shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishingiz va sizga bank hisobraqami nima uchun kerakligini tushuntirishingiz kerak bo'ladi. Bu siz bank bo'limiga tashrif buyurganda ko'rsatishingiz zarur bo'lgan ma'lumotlar haqidagi qo'llanmadir.

### Shaxsni aniqlash

#### Agar sizda Shvetsiya fuqarosi shaxsiy raqami bo'lsa

Agar sizda Shvetsiya fuqarosi shaxsiy raqami bo'lsa, siz amaldagi Shvetsiya fuqarosining shaxsni tasdiqlovchi hujjatini taqdim qilishingiz zarur.

#### Agar sizda Shvetsiya fuqarosi shaxsiy raqami bo'lmasa

Agar sizda Shvetsiya fuqarosi shaxsiy raqami bo'lmasa, siz amaldagi fuqaroligingizni tasdiqlovchi milliy pasportingizni taqdim qilishingiz zarur.

Shengen bitimiga a'zo mamlakatlar uchun, fuqaroligingizni tasdiqlovchi, shaxsingizni tasdiqlovchi Shvetsiya fuqarosi shaxsiy kartasiga muqobil hujjat ham amal qiladi.

Siz xorijiy mamlakatning shaxsni tasdiqlovchi hujjatini taqdim qilganingizda, shaxsingizni tasdiqlash uchun qo'shimcha hujjatlar, jumladan, rezident ruxsatnomasi, ish joyidan ma'lumotnoma, soliq idorasidan ma'lumotnoma yoki maktabdan ma'lumotnomalarni ham ilova qilishingiz zarur.

#### Agar siz shved yoki ingliz tilini tushunmasangiz

Agar siz shved yoki ingliz tilini tushunmasangiz, o'zingiz bilan tarjima qilib bera oladigan biror kishini olib kelishingiz kerak bo'ladi.

Biz bir-birimizni tushuna olishimiz juda muhimdir, chunki siz mijoz sifatida o'z huquq va majburiyatlaringizni tushunib olasiz va biz siz hamda sizning moliyaviy holatingiz haqidagi savollarga javob olamiz.

### Siz nima uchun bank hisobraqami ochmoqchisiz?

Qonunga ko'ra, barcha Shvetsiya banklari sizga bank hisobraqami nima uchun zarurligi va bu hisobraqamdan qanday foydalanishingiz haqida so'rashga majburdirlar. Bu ish haqingizni yoki boshqa mukofotlarni saqlash, ijara haqini to'lash yoki omonatingizni saqlash uchun bo'lishi mumkin.

Bizning aksariyat bo'limlarimizda naqd pul bilan muomala qilinmaydi. Shu sababli, siz bankdan naqd puldan boshqa shaklda xarajatlaringiz yoki to'lovlaringizni qanday amalga oshirishni so'rashingiz zarur.

Sizning bank kartangiz va hisobraqamingiz shaxsiydir. Sizning kartangiz yoki hisobraqamingizdan boshqalar foydalanmasligi kerak. Bank kartangiz va hisobraqamingiz haqidagi ma'lumotlardan foydalanishda ehtiyot bo'lishingiz juda muhim. PIN kodingizni hech kimga ko'rsatmang.

Agar daromadlar bo'yicha yordam puli olish uchun sizga bankdan hisobraqamingizdagi amaliyotlar haqida ma'lumotnoma kerak bo'lsa, siz bankning eng yaqin bo'limiga borishingiz zarur va u yerda sizga oylik hisobraqamingizdagi amaliyotlar haqida bepul ma'lumotnomaga obuna bo'lishga yordam berishadi.

#### Bank hisobraqamiga nisbatan huquqlar

Fuqaroligidan qat'i nazar, har qanday shaxs omonat sug'urtasi tomonidan qoplanadigan hisobraqamni ochish uchun asosiy huquqqa ega. Ammo, ayrim vaziyatlarda hisobraqam ochishda bank sizga rad javobini berishga haqli. Bank quyidagi vaziyatlarda sizga hisobraqam ochmaydi:

- agar bank shaxsingizni ishonchli usul bilan aniqlay olmasa
- hisobraqamni nima sababdan ochmoqchi ekaningiz haqidagi ma'lumotlarni bank yetarli emas, deb hisoblasa

### **Boshlang'ich taklif**

Boshlang'ich taklifimiz sizga quyidagicha imkon beradi  
Pulni omonatga qo'yish va  
To'lovlaringizni boshqarish.

Bu quyidagilardan tashkil topgan:

- Bank hisobraqami
- Bank kartasi
- To'lov xizmati



Agar siz shved yoki ingliz tilini tushunsangiz va raqamli xizmatlar bilan tanish bo'lsangiz, boshqa takliflarimiz ham bor. Bankingiz bilan sizga nima eng qulay ekani haqida gaplashib oling.

### **Dalillar**

#### **Noqonuniy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi chora-tadbirlar to'g'risidagi qonun haqida**

Noqonuniy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi chora-tadbirlar to'g'risidagi qonun soliq firibgarligi yoki jinoyiy harakatlarni moliyalashtirishda banklardan foydalanishning oldini olishga yo'naltirilgan Shvetsiya qonuni hisoblanadi. Qonunda ta'kidlanishicha, agar bank mijoz hisobraqami nega zarurligi va undan qanday foydalanish haqidagi savoliga javob olmasa, bankning hisobraqamlar ochishga haqqi yo'q.

#### **Omonat sug'urtasi haqida**

Shvetsiyada omonat sug'urtasi mavjud. Bu, agar bank inqirozga uchraydigan bo'lsa, davlat bank mijoziga muayyan miqdorgacha bo'lgan mablag'ni badal sifatida to'lab berishini anglatadi.

#### **Naqd pul haqida**

Swedbank – jamg'arma banki va boshqa ko'plab banklar va paychilar jamiyatdagi naqd pul aylanmasi hajmini kamaytish ustida faol ish olib boradilar. Shu sababli, biz o'z mijozlarimizni to'lovlarda bank kartasidan foydalanish, do'konlarda karta orqali to'lovlarda naqd pul chiqarib olish, naqd pulni karta hisobraqamiga qo'yish va undan naqd pul chiqarib olishda naqd pulni omonatga oluvchi uskunalar hamda bankomatlardan (ATM) foydalanishga undaymiz.